



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA DAROMADLARNI TAN OLIHNING XUSUSIYATLARI

Rahmonali OBIDOV¹

¹ ISFT instituti professor v.b., PhD

KALIT SOʻZLAR

Tushum, majburiyat, nazorat, qoplash huquqi, debitor qarzarlar, daromad, baholash usullari, natijalar usuli, resurslar usuli, shartnoma bahosi.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Выручка, обязательство, контроль, право на возмещение, дебиторская задолженность, доход, методы оценки, метод результатов, метод ресурсов, контрактная оценка.

KEY WORDS

Income, liability, control, right of reimbursement, receivables, income, valuation methods, results method, resource method, contract price.

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan aloqa qilishda nufuzli korxonalar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishida, chet el investorlarini jalb qilishda xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Chet el davlatlaridagi xaridorlar bilan savdo aloqalarini to‘g‘ri tashkil etishda IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) dan foydalaniladi. Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda va milliy hisobda tushum, daromadlarni tan olish usullari, baholash mezonlari, o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyatlari ochib berilgan.

АННОТАЦИЯ

Подготовка финансовой отчетности на основе международных стандартов имеет важное значение для взаимодействия Узбекистана с мировым сообществом, привлечения иностранных инвесторов, совместной деятельности с авторитетными предприятиями. При правильной организации торговых связей с покупателями в зарубежных странах используются международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) МСФО 15 “Доходы на основе контрактов с клиентами”. В данной статье раскрыты методы признания выручки, доходов, критерии оценки, их особенности и значение в международной практике и национальном учете.

ABSTRACT

Preparation of financial reports based on international standards is of urgent importance for Uzbekistan's communication with the world community, working together with reputable enterprises, and attracting foreign investors. International financial reporting standards (IFRS) entitled IFRS 15 "Revenues on the basis of contracts with customers" are used for the correct organization of trade relations with buyers in foreign countries. This article reveals income, income recognition methods, evaluation criteria, specific features and importance in international practice and national accounting.

Kirish. Davlatimizda dunyo hamjamiyati bilan o‘rnatilayotgan iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar, do‘stlik va hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Xorijiy hamkorlar bilan har tomonlama manfaatli aloqalarni o‘rnatish, sherikchilikni kengaytirish uchun O‘zbekiston butun dunyo ochiq bozorlariga chiqishi kerak, bu esa, o‘z navbatida, yangi texnologiyalarni

olib kelinishiga, bozor islohotlarini rivojlantirishga va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tezlashishiga sabab bo‘ladi. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobidagi quyidagi jumlagga e‘tibor qaratsak: “Bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bu borada muloqot va raqobatga tayyor bo‘lish uchun esa nafaqat



rahbarlar, balki menejerlar o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart”. “Albatta, biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor” [1; 42]. Prezidentimizning yuqoridagi gaplariga aniq isbot sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini keltirish mumkin. Ushbu qarorda: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”ga (keyingi o‘rinlarda – MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o‘tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS

bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan (keyingi o‘rinlarda – xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta‘minlaydi” keltirilgan [2].

Tadqiqot metodologiya. MHXS larini mohiyatini tushunish uchun ularni har birini chuqur o‘rganib, milliy hisobot standartlarimiz bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ishlab chiqish juda muhimdir.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standarti 2014-yil may oyida buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHMS) IAS 11 “Qurilishdagi shartnomalar” va (BHMS) IAS 18 “Tushum” nomli standartlarning o‘rniga chiqarilgan.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standartida tushumga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Tushum – bu odatiy, ya‘ni korxonaning asosiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan daromaddir” [3] deyilgan. Tushumni tan olishda 5 ta asosiy qadamlar ajratilgan:

1-qadam. Xaridor bilan shartnomani identifikatsiyalash, ya‘ni shartnomani tuzishdagi talablarga javob berilishi: shartnoma sanasi, nomi, rekvizitlari, summalari aniqlangan bo‘lishi kerak. Tushum faqatgina xaridor bilan shartnoma tuzilgandagina tan olinadi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

2-qadam. Xaridor bilan tuzilgan shartnoma asosida yuzaga keladigan majburiyatlar, ularni bajarilishini ta'minlash identifikatsiya qilingan, aniq qilib ko'rsatilgan bo'lishi kerak, ya'ni tuzilgan shartnomaga asosan sotuvchi shu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni ijrosi yuzasidan qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi, shartnomada ko'rsatilgan har bir tovar va xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

3-qadam. Shartnoma narxini belgilash. Shartnomada tovar va xizmatlar yuzasidan bo'ladigan to'lovlarning har xil shartlari bo'lishi mumkin: oldindan to'lov miqdori, ma'lum vaqtga kechiktirib to'lash, tovar uchun to'lov qilishda qat'iy belgilangan o'zgaruvchan qismlari bo'lishi mumkin, to'lov pul ko'rinishida yoki aksincha pul bo'lmagan ko'rinishda ham amalga oshirilishi mumkin. Shartnoma tuzilgan sanada narx belgilanadi. Agar vaqt faktori mavjud bo'lsa, ya'ni to'lov shartnoma shartlariga asosan bir yildan ortiq bo'lgan muddatga amlaga oshiriladigan bo'lsa, shartnoma shartlarida moliyalashtirish komponenti mavjud bo'ladi va u alohida ko'rsatilishi kerak. Agar o'zgaruvchan komponentni olish taxmini yuqori bo'lsa, u holda u shartnoma bahosiga qo'shiladi [2].

Masalan, shartnoma shartiga ko'ra to'lov 2 yildan so'ng amalga oshirilsa, 2 yildan keyingi pul birligi hozirgi kundagi pul birligiga teng bo'lmaganligi sababli, kelajakda olinadigan summa diskontlanadi.

4-qadam. Shartnoma bahosining shartnoma shartlari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarga taqsimlanishi. Avvalgi qadamda belgilangan shartnoma bahosi, 2-qadamda ko'rsatilgan tovar va xizmatlar bo'yicha taqsimlanishi kerak, ya'ni

2-qadamdagi tovar va xizmatlar alohida sotilganda qanchaga sotilishi mumkinligi aniqlanib, foizda ulushi topiladi va shartnoma bahosini topilgan ulush doirasida alohida tovar va xizmatlar bo'yicha shartnoma bahosi proporsional taqsimlanadi.

5-qadam. Sotuvchi shartnomaga asosan o'z majburiyatlarining bajarilishi mobaynida daromadni tan olib borishi kerak. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi aniq bir vaqtda va ma'lum bir davr mobaynida amalga oshirilishi mumkin. Buni aniqlash uchun majburiyatlarni bajarilish darajasi baholanadi. Umuman olganda odatda tushum (daromad) xaridorga tovar va xizmatlar ustidan nazorat topshiriladigan vaqtda tan olinadi.

Tahlil va natijalar. MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standarti debitorlik qarzlari tushunchasini o'zgartirdi. Odatda debitorlik qarzlari xaridorlarning yetkazib berilgan tovar yoki xizmatlar bo'yicha to'lanmagan qarzi hisoblanadi. Ushbu standartga asosan esa debitorlik qarzi – bu tashkilotning shartsiz qoplash huquqiga ega bo'lishi, ya'ni sotuvchi yetkazilgan tovar va xizmatlar uchun to'lov olishga so'zsiz haqli degani. Xaridor shartnomaga asosan oldindan to'lov qilishi kerak bo'lsa (xali yetkazib berilmagan tovar va xizmatlar uchun), shartnoma tuzilgan vaqtda sotuvchi o'z hisobida debitorlik qarzini hamda tovar va xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatni ham tan oladi.

Shartnoma bo'yicha aktiv (qoplash huquqi) – bu yetkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun olinadigan qoplash huquqi, lekin hisobot sanasiga vujudga kelmagan, ya'ni sotuvchi qo'shimcha shartlarni oxirigacha bajargandagina debitorlik qarzi tan



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

olinadi, sotuvchi shartnoma shartiga asosan xaridorga hamma tovarlarni yetkazib bergandagina xaridor pulini to‘laydi. Yetkazib bermaguncha u debitor qarzi emas, shartnoma bo‘yicha aktiv deb tan olib turiladi. Nima uchun qisman yetkazib berilgan tovar uchun olinadigan to‘lovni debitorlik qarzi deb hisobga olmaymiz, chunki shartnoma shunday tuzilgan, xaridor hamma tovarlarni olgandagina tovar uchun to‘liq to‘lov qiladi. Moliyaviy hisobotlar investorga aniq va to‘g‘ri ma‘lumot berish uchun tuziladi, investor ko‘rgan ma‘lumotlaridan to‘g‘ri qaror chiqarishi uchun chalg‘imasligi, debitor qarzi alohida, shartnoma bo‘yicha aktiv alohida ko‘rsatilishi kerak, ya‘ni debitorlik qarzidagi pul olinishi aniq bo‘lgan summadir. Shartnoma bo‘yicha aktiv esa hali debitor qarzga aylanmagan summa, ya‘ni sotuvchida yana ozigina bajarilmagan majburiyat bor va shu majburiyat yuzasidan xarajat ham bor, shular bajarilgandan keyingina oladigan summasi aniq bo‘ladi degan ma‘noni bildiradi.

Masalan, sotuvchi hisobot davrida 200 000 so‘mlik tovarni xaridorga yetkazib bergan, sotilgan tovarning tannarxi 180 000 so‘m. Shartnoma shartiga asosan 250 000 so‘mlik tovar yetkazib berilgandan keyin, xaridor qarzini to‘laydi. Sotuvchi hisobot davrida quyidagicha buxgalteriya provodkalarini beradi:

Debet: Shartnoma bo‘yicha aktiv 200 000 so‘m.

Kredit: Sotilgan tovar bo‘yicha tushum 200 000 so‘m.

Tovar sotilganda tannarxi ham hisobdan chiqariladi.

Debet: Sotilgan mahsulot tannarxi 180 000 so‘m.

Kredit: Chiqib ketgan tovar 180 000 so‘m.
250 000 so‘mlik tovar yetkazib berildi, ya‘ni qolgan 50 000 so‘mi yetkazib berildi:

Debet: Debitorlik qarzi 250 000 so‘m.

Kredit: Shartnoma bo‘yicha aktiv 200000 so‘m.

Kredit: Sotilgan tovar bo‘yicha tushum 50000 so‘m.

MHXS IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar asosida tushum” standartida daromadga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Daromad – bu ta‘sischilarning xususiy kapitalga kiritilgan ulushi bilan bog‘liq bo‘lmagan, aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishi natijasida xususiy kapital ko‘payishiga olib keladigan moliyaviy hisobotning elementi hisoblanadi” [3].

Nazorat – bu imkoniyat (ko‘pincha yuridik huquq bilan himoyalangan):

Aktivdan foydalanish huquqini aniqlash imkoniyati;

Shu aktivdan foydalanish evaziga kelajakda undan iqtisodiy naf olish imkoniyati;

Olingan iqtisodiy naf (foйда)ga uchinchi shaxslarning aralashuvini cheklash imkoniyatlaridir.

Tushumni tan olish davri.

Sotuvchi tashkilot xaridor oldidagi majburiyatlarini bajarilishi mobaynida, ya‘ni tovar va xizmatlar bo‘yicha nazoratni berayotgan vaqtda tushumni tan oladi. Majburiyatlarning bajarilishi xususiyatidan kelib chiqib tushum:

Aniq vaqtda, ayni operatsiya sodir bo‘lgan vaqtda va

Ma‘lum davr mobaynida tan olinadi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Davr mobaynida tushumni tan olish quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilganda ham tan olinadi:

Sotuvchi tomonidan majburiyatlar bajarilishi mobaynida xaridor bir vaqtning o‘zida ham foyda oladi va ham foydadan foydalanadi (har oylik texnik xizmat misol bo‘ladi);

Sotuvchi tomonidan majburiyatlarni bajarish orqali aktivning vujudga kelishi jarayonida xaridor nazoratida bo‘ladi;

Sotuvchi tashkilot tomonidan majburiyatlarini bajarish davrida barpo bo‘layotgan aktiv bo‘yicha mabodo shartnoma to‘xtatilsa va sotuvchi bu aktivdan foydalana olmasa va sotib yuborish alternativasi, ya‘ni yo‘li bo‘lmasa (aktiv xaridorning maxsus buyurtmasi orqali barpo bo‘lgan), xaridor shartnoma to‘xtatilish davrigacha, shartnoma asosida bajarilgan ish yuzasidan to‘lov olish huquqi bilan ta‘minlanganidir.

Boshqa qolgan vaziyatlarda tushum, ma‘lum vaqtda, operatsiya sodir bo‘lgan vaqtda tan olinadi.

Korxonada tushumni, shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni davr mobaynida bajarish chog‘ida, faqatgina majburiyatlarni bajarish darajasini baholay olgandagina tan olishga haqlidir.

Majburiyatni bajarilish darajasini baholash 2 xil usulda amalga oshiriladi:

Natijalar usuli;

Resurslar usuli.

Yuqoridagi usullar faqatgina xaridor nazoratiga o‘tgan tovar va xizmatlar uchun qo‘llaniladi. Agar sotuvchi korxonada tovar va xizmatlar bo‘yicha nazoratni xaridorga bermagan bo‘lsa, u tovar va xizmatlar

majburiyatlarni bajarish darajasini aniqlash usulida qatnasha olmaydi.

Baholash usullari xaridor oldidagi majburiyatlarni bajarish darajasini haqqoniy aks ettirishi kerak [4].

Natijalar usuli – shartnomada kelishilgan tovar yoki xizmatlarni xaridorga topshirish sanasigacha qolgan qismiga nisbatan baholanib, tushum tan olinadi.

Resurslar usuli – bu usul orqali tushum (daromad) ni tan olishda korxonada shu aktivni yaratish uchun qancha xarajat qilgan, resurs ishlatgan, masalan, xom-ashyo, vaqt, ishchilar xizmat haqqisi kabi xarajatlardan kelib chiqqan holda tan olinadi.

Tushumni baholash.

Shartnoma bahosi – bu xaridordan yetkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun va‘da qilingan to‘lov qoplamasi tarzida olinadigan summa.

Shartnoma bahosi belgilanayotgan vaqtda sotuvchi tashkilot shartnoma shartlaridagi quyidagi omillarni hisobga olishi kerak:

Tovar va xizmat uchun olinadigan to‘lov pul ko‘rinishidami yoki pul bo‘lmagan ko‘rinishdami;

Shartnomada moliyalashtirish komponentini mavjudligiga;

Majburiyatlarni bajarilishida vaqt bo‘yicha omillarning mavjudligiga;

To‘lovni qat‘iy belgilangan va o‘zgaruvchan qismlari mavjudligiga;

To‘lovni xaridorga qaytarish omillarini mavjudligiga.

Pul ko‘rinishida to‘lanmaydigan to‘lov haqqoniy baho bo‘yicha baholanadi.

Agar tovar va xizmatlarning yetkazilishi va xaridorni to‘lovni qilinish muddati bir yildan ortiq bo‘lsa, pulning vaqt omili hisobga



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

olinishi kerak va shartnomada moliyalashtirish komponenti mavjud deb qaraladi (Faqatgina xaridor oldindan to‘lov qilib, o‘zi tovar va xizmatlarni yetkazib berish muddatini belgilagan vaziyatlardan tashqari) [5].

Xaridor kechiktirib to‘lov qiladigan vaziyatda, tovar va xizmatlar sotilgan vaqtdagi tushum summasi, xaridordan olinadigan to‘lov, bozor bahosini kredit risklarini hisobga olgan holda diskontlangan summasiga teng bo‘ladi. Kechiktirib to‘lov olinishi, sotuvchini xaridorga kiritgan ma‘lum miqdordagi investitsiyasi, ya‘ni moliyalashtirish komponenti mavjud degan ma‘no chiqadi. Sotuvchi bozor bahosida diskontlangan to‘lov summasidan foiz ko‘rinishidagi daromadga ega bo‘ladi. Buning natijasida yuzaga keladigan debitor qarzdorlik MHXS IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standarti orqali tartibga solinadi.

Sotuvchi xaridordan oldindan to‘lov olgan vaziyatda, tovar va xizmatlar xaridorga yetkazilganda, tushum summasi olingan to‘lovni bozor narxida, kredit risklarini hisobga olgan holda diskontlangan summasiga teng. Bu vaziyatda xaridor sotuvchini ma‘lum ma‘noda moliyalashtiryapti deb tushuniladi va sotuvchi xuddi qarz olganday bo‘lib, foiz ko‘rinishidagi xarajatni tan olib boradi [6].

Sotilgan mahsulotni xaridor tomonidan qaytarilishi bilan bog‘liq kafolatlar.

Agar shartnoma shartlariga muvofiq sotilgan mahsulot ma‘lum vaqtda qaytarilishi to‘g‘risida kafolatlar keltirilgan bo‘lsa, sotuvchi tashkilot sotilgan mahsulotning qancha qismi qaytarilishi ehtimolini baholashi kerak. Sotilgan mahsulot bo‘yicha olingan to‘lovni qanchadir qismi xaridorga qaytarilishi kutilayotgan bo‘lsa, tushum shu farq

summasini olib tashlab tan olinishi kerak, xaridorga qaytariladigan majburiyat sifatida aks ettirilishi lozim. Shu navbatda qaytarilishi kutilayotgan mahsulot balans qiymati bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda aktiv sifatida hisobga olishi kerak.

Qaytarilishni kafolat muddati tugaganidan so‘ng, sotuvchi avval tan olgan majburiyatini yopib tushum tan oladi.

Hisobot davri oxiriga sotuvchi tashkilot qaytarilishi kutilayotgan mahsulot bo‘yicha qayta baholash o‘tkazishi kerak: majburiyat va tushumni, qaytarilishi kutilayotgan aktiv va sotilgan mahsulot tannarxini korrektyrovka, ya‘ni tuzatishlar qilishi kerak [7].

Milliy standart bo‘yicha daromadlarning tan olinishi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi (BHMS) O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 26-avgustda 483-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan 2-son “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar” milliy standarti orqali tartibga solinadi. Ushbu standart “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini normativ tartibga solish elementi hisoblanadi [8]. Ushbu standart moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos doirasida ishlab chiqilgan. Ushbu standartga asosan xo‘jalik faoliyatidan daromad asosiy, operatsion va moliyaviy faoliyatdan daromadlardan tashkil topadi.

Muhokama va xulosa. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq tayyorlangan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot shakli aksiyadorlik



www.isft.uz

“ISFT” ILMYIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

jamiyatlari faoliyatining moliyaviy holat ko'rsatkichlarini shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Ushbu hisobot kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitali. Ushbu hisobot turini xalqaro standartlar asosida tuzilar ekan, qonunchilikka bir qator o'zgartirishlar kiritish lozim. MHXSga va BHMSda buxgalteriya hisobini yaqinlashtirish bo'yicha hisob siyosati bo'yicha asosiy uslubiy tavsiyalar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

BHMS va MHXSda berilgan debitorlik va kreditlar uchun zaxiralarni yaratishning yagona metodologiyasini qo'llash;

Foyda yoki zarar Hisobot davrining sof foydasi (zarari) Yalpi daromadning har bir

komponenti – Ulushli qatnashish hisobi usuli bo'yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi Jami yalpi daromad Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta'sischilariga taaluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad;

MHXS tamoyillariga muvofiq BHMSda zaxiralarni yaratish;

- Zaxiralarni muntazam inventarizatsiya qilish, likvidsiz zaxiralarni hisobdan chiqarish;

- MHXSni zaxiralash tamoyillari asosida sud jarayoni uchun zaxira yaratish;

- foydalanilmagan ta'tillar uchun zaxirani yaratish va tiklashga yagona metodologiyani qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – O'zbekiston: Toshkent, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>

3. Кузьмин М.Ю. Как подготовиться к экзамену ДипИФР. www.msfo-training.ru

4. Ismanov I. N., Axmadaliev B. Factors Influencing The Formation Of International Budget Accounting Systems // The American Journal of Management and Economics Innovations, 2021. – № 3 (09). – PP. 21-30.

5. Obidov R. R. Klaster tizimida xarajatlar hisobini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.

6. Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.

7. Khamdamov O. N. Improving the organizational mechanism of financial management in joint stock companies // The American Journal of Management and Economics Innovations, 2023. – T. 5. – №. 11. – PP. 47-57.

8. Хоружий Л.И. и другие. Бухгалтерский учет затрат на производство и калькулирование себестоимости продукции в сельскохозяйственных организациях. – М.: Издательство.